

## YOSHLARDA SOG'LOM DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Hakimova Sarvinoz Sharifjon qizi,  
Farg'ona davlat universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti 3-kurs talabasi  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.017>

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО МИРОВОГО ОТНОШЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ

Хакимова Сарвиноз Шарифжан кызы  
Ферганский государственный университет Факультет педагогики и психологии  
студент 3 курса

## PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF FORMING A HEALTHY WORLD ATTITUDE IN YOUTH

Khakimova Sarvinoz Sharifjan kizi  
Fergana State University Faculty of Pedagogy and Psychology 3rd year student

*Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishda psixologik va pedagogik omillari, e'tiqodning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, dunyoqarashning shakllanish bosqichlari o'rganilgan. Yoshlarni sog'lom e'tiqodli qilib tarbiyalash borasida diniy bilimlarning ta'siri haqida tavsilotlar yoritilgan. Bundan tashqari talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning psixologik mexanizmlari va shaxsning ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi, shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyati, yoshlarni tarbiyalashda, ularni axloq-odobli, tartib-intizomli qilishda ilmiy dunyoqarashning ijtimoiy-psixologik ahamiyati yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: Yoshlar tarbiyasi, axloqiy me'yorlar, jamiyat, ilmiy dunyoqarash, shaxs kamoloti, xulq-atvor, aqliy tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalar, tafakkur, madaniyat, tasavvur, ma'naviy-axloqiy fazilat.*

*Abstract: This article deals with the formation of a healthy worldview in young people psychological and pedagogical factors, the importance of faith in the education of young people, the stages of formation of the worldview were studied. Explanations about the influence of religious knowledge on raising young people to have healthy beliefs are explained. In addition, the psychological mechanisms of forming a scientific worldview in students and the ability of a person to have a scientific worldview, the ability to think independently, the socio-psychological importance of a scientific worldview in educating young people, making them moral and disciplined, are highlighted.*

*Key words: Youth education, moral standards, society, scientific outlook, personality development, behavior, intellectual education, pedagogical and information technologies, thinking, culture, imagination, spiritual and moral virtue.*

*Аннотация: В данной статье речь идет о формировании здорового мировоззрения у молодежи изучены психолого-педагогические факторы, значение веры в воспитании молодежи, этапы формирования мировоззрения. Даются разъяснения о влиянии религиозных знаний на воспитание у молодежи здоровых убеждений. Кроме того, рассматриваются психологические механизмы формирования научного мировоззрения у студентов и способность человека иметь научное мировоззрение, способность мыслить самостоятельно, социально-психологическое значение научного мировоззрения в воспитании молодежи, воспитании ее нравственности и дисциплинированности, выделены.*

*Ключевые слова: образование молодежи, моральные нормы, общество, научное мировоззрение, развитие личности, поведение, интеллектуальное образование, педагогические и информационные технологии, мышление, культура, воображение,*

*духовно-нравственная добродетель.*

Kirish. Yoshlar tarbiyasi hamma davr, har qanday jamiyat uchun eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan. Bugungi globallashuv jarayonida insoniyat oldidagi eng muhim masalalaridan biri yoshlarning odob-axloqi va ularning ta'lim-tarbiyasi masalasidir. Mamlakat rivoji, yurt ravnaqi o'sha mamlakatning ertasi, kelajagi bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bog'liq. Bugungi kunda prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart."- degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan. [1] Yoshlarimiz ongida el-u yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'usi ilk bor oilada, yashab turgan mahallasida shakllanadi. Eng yaxshi tarbiya bu zukko va komil ota-ona tomonidan o'z farzandiga berilgan tarbiyadir. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla farovon bo'ladi. Ota-ona oldidagi eng mas'uliyatli vazifa bu- farzand tarbiyasidir[2]. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari oilada farzand tarbiyasi va umuman oilaning ijtimoiy rolini ochib beradi. Avloniy tarbiya jarayonida oilaning va jamoatchilikning o'rnini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarni tarkib toptirishda oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega. Bolaning shaxs sifatlariga to'xtalib, unda oilaning rolini ko'rsatar ekan, "Qush uyasida ko'rganini qiladur" deydi. Bolani ham yoshligidan boshlab yaxshilab tarbiya qilinsa, go'zal axloqli, odobli etib o'stirilsa, u bola o'ziga, ota-onasiga baxt-saodat keltiradi, jamiyatning eng foydali a'zosiga aylanadi. Inson uchun ilm va odobdan ortiq najot yo'lini ko'rsatuvchi omil bo'lmas kerak. Bu dunyo va oxiratning baxt-saodati va bandaning najot topish yo'li har ikkisini mukammal va yetarli darajada egallash bilan bog'liqligini to'g'ri anglab olmoq lozim. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya uzluksiz jarayon. Bolaga tarbiyaning har bir turi har qachon olib borilishi kerak. Xo'sh "Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?", degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida o'ziga xos va mos milliy, diniy qadriyatlarga asoslangan xalqimizning tarbiya borasidagi azaliy an'analari "ommaviy madaniyat", mentalitetimizga yod g'oya va qarashlar ta'sirida asl mohiyatini yo'qotib borayotgani barchamizni tashvishga soladi. Ushbu jarayonga, ya'ni tarbiya masalasiga o'z vaqtida jiddiy e'tibor qaratmasak, ertaga kech bo'lishi, tuzatib bo'lmas darajadagi oqibatlariga olib kelishi mumkin. Zero, tarbiya borasida taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan so'zlarini aslo unutmasligimiz lozim. Bu kabi mazmunli so'zlar mohiyati o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kim fanda ilgarilab, axloqda oqsasa, u oldinga emas ko'proq orqaga ketadi. Insoniyat taraqqiyotida axloq va odob kani fazilatlar ijtimoiylashuvi uchun muhim o'rin tutsa, ilm olishi va dunyoni bilishi uchun esa dunyoqarshi ahamiyatlidir[1]. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlanlantirish, sog'lom dunyoqarsh va ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri deb qarashgan. Dunyoqarash dunyoni bilish orqaligina shakllanadigan juda murakkab dialektik jarayondir. Bilish dunyoning turli tomonlari haqidagi turli fanlar bergan ishlar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ilmsiz kishilarda dunyo to'g'risida ilmiy dunyoqarash bo'lmaydi. Dunyoqarash «dunyoni tushuntirish», «dunyoni his qilish», «olamni idrok etish» kabi tushunchalar bilan ma'nodoshdir.

Asosiy qism. Dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy tasavvurlarning yig'indisidan iboratdir. Dunyoqarash ayrim kishilarning, ijtimoiy guruhning, sinf yoki umuman jamiyatning faoliyati yo'nalishini va voqelikka munosabatini belgilaydi. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilgach, insonning yoki guruhning tevarak atrofidagi ijtimoiy va tabiiy borliqqa bevosita amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Madomiki, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo'l: tajriba va mantiq (aql) yo'li bilan bo'lar ekan. Demak, kishi hayot to'g'risidagi, o'tmishdagi mutafakkirlarning dono fikrlariga va o'zi to'plagan shaxsiy hayot tajribasiga, bilimiga tayanmog'i kerak[3].

Shaxsning ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi, ilmiy bilimlarni o'zlashtirib borishi katta

ahamiyat kasb etadi. Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan inson tabiat, jamiyatda ro'y berayotgan voqea, hodisalar mohiyatini to'g'ri talqin eta oladi, hech qachon dalillar bilan isbotlanmagan voqilik hodisalarni haqiqat sifatida qabul qilmaydi. Shuningdek, ilmiy dunyoqarashga egalik shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, zamonaviy sharoitda inson ongini boshqarish ilinjida yurgan turli oqimlar, mistik g'oyalarga berilmaydi, shaxsning hayotida, shuningdek, ijtimoiy jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning muayyan qonuniyatlarga asoslanishiga ishonadi va ularni tabiiy qabul qiladi. U o'zining va jamiyatda sodir bo'layotgan salbiy hodisalarni o'tkinchi sifatida qabul qiladi, kelajakka ishonch bilan qaraydi.

Muhokama va natijalar. Ma'lumki, keyingi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyat yuritishni muayyan rejalashtirilgan tartibga soluvchi yondashuv sifatida pedagogik texnologiya nazariyasidan foydalangan holdagi pedagogik faoliyat e'tirof etilmoqda.

Ta'lim va tarbiyani doimo birga bermoq zarur, chunki ular bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Yoshlar tarbiyasi har bir davrning o'ta dolzarb masalasi bo'lib kelgani ayni haqiqat. Tarbiya haqida Imom G'azzoliyning «Ihyou ulumud din» kitobida bunday deyiladi: «Bola – ota-ona qo'lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan xoli. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo'laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o'rgatilsa, saodatli bo'ladi. Ota-onasi hamda odob, ta'lim-tarbiya bergan ustozlar uning savobiga sherik bo'ldi. Agar yomonlikka undalsa, halok bo'ladi». Buyuk vatandoshimiz shayxurrais Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo'lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: «Yosh bola boshlang'ich ta'lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg'ul bo'lishi mumkin bo'lgan kasb-hunar va san'atga moyilligiga qarab, uni shunga yo'llaymiz. Yoshlarni chuqur bilimli, yuksak salohiyatli, mehnatsevar, halol va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash bugungi globallashuv hamda texnika asrida har doimgidanda dolzarblashib bormoqda. Dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan turli xunrezliklar, janjal-to'polonlar, terrorchilik harakatlari, qonli to'qnashuvlarning asosiy ishtirokchilari bu – yoshlar ekanligi shubhasiz. Achinarlisi, ularning aksariyati qilayotgan ishining maqsadini ham, ayanchli oqibatlarini ham anglab yetmayotganidadir. Shu o'rinda, kelajagimiz egalari bo'lgan bolalarimizni boshi berk ko'chaga boshlayotganlar ularni o'z domiga qanday ilintirmoqda? degan o'rinli savol tug'iladi. Buning yo'li, ayni internet zamonida anchayin osonlashgan. Bugun yoshlarning o'rtasida turli saytlardan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmaydigani yo'q, mubolag'a bo'lmaydi. Ularning ko'pchiligi sodda, g'o'r, hali hayotning baland-pastini ko'rib, oq-qorani tanib ulgurmagani, hoyu havaslarga o'chligi esa nopok niyatli kimsalar uchun ayni muddao bo'lmoqda. Mana shunday murakkab va tahlikali zamonda yoshlarni o'z holiga tashlab qo'yish, ularni begonalar qo'lga topshirish, ertamiz egalarining dushman quroliga aylanishiga shart-sharoit yaratish, deganidir[4].

Yoshlarni sog'lom e'tiqodli qilib tarbiyalash vazifasi hamma vaqt jamoatchilik diqqat markazida bo'lib kelgan va u har bir davrda zamon talablaridan kelib chiqib hal qilingan. Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashni xohlar ekanmiz, bu borada to'plangan boy tajribaga murojaat qilishimiz shart. Yoshlar har bir millatning kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy ahamiyat berilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kim bo'lishligi yoshlik paytidan bilina boshlaydi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlar insonga butun umri davomida hamroh bo'ladi. Shuning uchun jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo'lishlari uchun harakat qilinadi[5].

Ma'nan komil inson avvalo oilada, maktabda, mahallada tarbiyalanadi va shakllanadi. Bunda maktab yetakchi rol o'ynab, buning uchun ma'naviyatning asosini sog'lom e'tiqodning asosini tayanchini tashkil etadigan halollik, adolat, oriyat, nomus, vijdon, diyonat kabi asosiy tushunchalar haqida tizimli uzluksiz ilmiy ma'lumot olmog'i hamda ularni hayotda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma odatlarni tarkib toptirish shart. Bu kabi diniy ma'naviy tushunchalar sho'rolar davrida o'quvchi yoshlar tarbiyasida hisobga olinmaganligi oqibatida pedagogik tizimda salbiy voqealarni keltirib chiqardi. Buning oqibatida jamiyat hayotining barcha jabhalarida pasayish ro'y berdi.

Sog'lom e'tiqodni shakllantiishda avvalo, ilm o'rganish, ta'lim olishning muhimligi haqida Abdulla Avloniy batafsil to'xtalib o'tgan: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdur. Zeroki, ilm bizga savobni gunohdan, halolni

haromdan, tozani murdordan ayirib berur, ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh urug‘iga, yor do‘stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tomonda tursin, o‘z ustiga lozim bo‘lgan ibodat va toatni ham lozim qila olmas.” Sog‘lom e‘tiqodni shakllantirishning nazariy masalalarini ko‘rib chiqish asrlar davomida shakllangan islom dinida e‘tiqod tarbiyasining mazmuniga maxsus to‘xtalish zarurligini taqozo qiladi. Islom dini tarqala boshlagach, ijtimoiy-iqtisodiy va diniy faoliyatni qamrab oluvchi axloqiy qonunlar majmuasini ishlab chiqishga ehtiyoj tug‘ildi. Buning uchun Qur‘on va sunna asos qilib olindi, natijada musulmonlarning moddiy va ma‘naviy, ijtimoiy va shaxsiy hayotini tartibga solib turuvchi tarbiya tizimi vujudga keldi[6].

Sog‘lom dunyoqarshni shakllantirishda, uning psixologik, falsafiy talqinlari muhim ahamiyatga ega. E‘tiqod muayyan g‘oya, dunyoqarashga his-hayajonli yondashuv ma‘nosida iymonga yaqin turadi. Ammo e‘tiqod tushunchasida faqat ijobiy jihatlarnigina ko‘rish to‘g‘ri emas. Ijobiy va salbiy mazmunga ega e‘tiqod shakllari o‘rtasida yana bir ma‘naviy-ruhiy hodisa - e‘tiqodsizlikning ham mavjudligini e‘tirof etish lozim. U.Djems o‘zining “E‘tiqodga bo‘lgan iroda” asarida irodani e‘tiqod bilan bog‘liqligini tushuntirib beradi. Ko‘pgina faylasuf va psixologlar inson e‘tiqodining asosini – hissiyot tashkil etadi deb hisoblaydi. Faylasuf va psixolog G.Geffding bu haqida shunday yozadi: “Hissiyot – hamma dinlarni va diniy qarashlarning asl mohiyatini, xususiyatlarini tashkil etadi. Unga nisbatan hamma tasavvurlar bo‘ysunadi va bog‘liq bo‘ladi”.

Sog‘lom dunyoqarash aslini olganda, axloqiy me‘yor hamdir. Shuning uchun, sog‘lom dunyoqarshni shakllantirishda ta‘lim-tarbiya jarayonining pedagogik, psixologik xususiyatlari, shaxsning o‘ziga xosligi kabi jixatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shulardan kelib chiqqan holda, har bir inson oldida farzandlarni sog‘lom e‘tiqodli, bilimli qilish va ularni ilmga va ilimli kishilarga muhabbat ruhida tarbiyalash mas‘uliyati turadi[8]. Uni bajarish esa, farzanlari tarbiyasi uchun qayg‘urgan har bir ota-ona uchun muhim hisoblanadi. Yoshlarda din haqida holis bilimlarning shakllantirilishi dinning mohiyati va jamiyat hayotidagi o‘rni, vazifalari to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy qarashlarini sog‘lom e‘tiqod shakllanishi uchun asos bo‘la oladi. Yoshlarni sog‘lom dunyoqarshli qilib tarbiyalash vazifasi hamma vaqt jamoatchilik diqqat markazida bo‘lib kelgan va u har bir davrda zamon talablaridan kelib chiqib hal qilingan. Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashni xohlar ekanmiz, bu borada to‘plangan boy tajribaga murojaat qilishimiz shart. aqiqatan ham, hozirgi zamonda geosiyosiy kuchlar o‘rtasidagi raqobat o‘z cho‘qqisiga chiqdi va yoshlar geosiyosiy ta‘sir ob‘ektiga aylanib bo‘ldi. Shuning uchun yoshlar ongini o‘zgartirishga qaratilgan harakatlarni har qadamda uchratish mumkin. Bu nima degani? Bugungi kunda internet tarmoqlaridagi axborot oqimlari orqali yoshlar ongini zamonaviylashtirish bahonasida ularni milliy ijtimoiy-madaniy va ma‘naviy qadriyatlardan “ozod etish” maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. Ya‘ni oila, ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug‘, Vatan, vatanparvarlik, mehr, ezgulik kabi qadriyatlarimizning asosi bo‘lgan tushunchalar sekin-asta, sezdirmasdan yo‘qotilib, o‘rniga globalizmning “hayotda faqat sen va dunyo bor” tushunchasi va bu –bilan bog‘liq qadriyatlarni singdirishga kuchli harakatlar bo‘lmoqda. An‘anaviy ommaviy axborot vositalari o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Jamoatchilik, shu jumladan, yoshlar fikrini televidenie, radio va gazetalar o‘rnini egallayotgan internet shakllantirmoqda. Eng yomoni, bunday xurujlarning oqibati odamni o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti va xalqidan tonish, hamma narsaga loqayd bo‘lgan manqurt shaxsga aylanishida namoyon bo‘ladi. Insoniyat paydo bo‘libdiki, eng dolzarb, eng mashaqqatli va eng qiyin vazifa – yoshlar tarbiyasi masalasi bo‘lib kelgan. Barcha alloma, mutafakkirlar, millatning ziyolilari jamiyat rivoji, mamlakat farovonligi, tinchligu xotirjamligini yoshlar tarbiyasi bilan bog‘laganlar. Bu bejiz emas. Qayerda tarbiya masalasini ta‘lim bilan, milliy qadriyat, an‘analar, mentalitet bilan uzviy bog‘liqlikda hal etishga harakat qilingan bo‘lsa, o‘sha joyda rivojlanish, taraqqiyot bo‘lgan. Yoshlar ta‘lim – tarbiyasiga e‘tiborsizlik qilingan joyda esa inqirozlar, milliy o‘pirilishlar sodir bo‘lavergan. Ba‘zida o‘ylanib qolasan, bu kabi vaziyatda nima qilish kerak[7]. Avvalo “Ta‘lim tarbiyasiz, tarbiya ta‘limsiz bo‘lmaydi”, degan qoidaga rioya etgan holda, nafaqat oliy ta‘limda balki maktab, maktabgacha ta‘lim muassasalarida, xususan oilalarda qadriyatlar ruhidagi targ‘ibotlarni kuchaytirish kerak. Deylik yosh bolaga ertak, o‘rta yoshdagi o‘smirga hurmatni, yoshlarga esa qadriyatlarning ahamiyatini tushuntirish

orqali Vatanga daxldorlik tuygʻusini shakllantirish orqaligina sogʻlom dunyoqarashli yetuk insonni kamol toptirish mumkin.

Xulosa: Biz farzandlarimizga ta'lim va tarbiyali va sogʻlom dunyoqarashli qilib tarbiyalamoqchi ekanmiz, avvalo, ularga hayotni yaxshi tushuntirishimiz, vatanni sevishni oʻrgatishimiz, xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalashimiz lozim. Vatanga nisbatan boʻlgan mehri esa uni xalqqa yetadigan ziyonidan saqlab, koʻproq uning foydasiga xizmat qilishga undab turadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, oʻzining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Oʻzining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular oʻz ota-bobolariga, oʻz tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'alariga sodiq boʻlib kamol topishsin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent: O'zbekiston-2016
2. Islom Karimov "Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi" 5-jild Toshkent: O'zbekiston 1997,
3. Abdulla avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asari T. O'qituvchi. 18-19-betlar.
4. Курбонова, М. Ф. (2020). Ёшларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари. Халқ таълими.
5. Абдусаматова, Ш. С., & Бурханова, М. Б. (2020). Куп фарзандли ота-оналарининг оиладаги муносабатларининг хусусиятлари.
6. Тожибоева, Г. Р. (2020). Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. Science and World, 1(77), 32-33.
7. Pedagogika M.X. To'xtaxodjayeva Toshkent 2010 280 bet.
8. Umumiy psixologiya P.I.Ivanov, M.E.Zufarova Toshkent-2008 355-bet .
9. Psixologiya E.G'oziyev Toshkent-2008 240-betlar.
10. Ijtimoiy psixologiya V. Karimova Toshkent -2002 159-bet